

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAMANAZAROV SARDOR SHUXRATOVICH

BIG DATANING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Mamanazarov Sardor Shuxratovich Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimi.....	3
Mamanazarov Sardor Shukhratovich Civil legal regime of Big Data	25
Маманазаров Сардор Шухратович Гражданско-правовой режим Big Data	45
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ	50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAMANAZAROV SARDOR SHUXRATOVICH

BIG DATANING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu684 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Komil Kayumovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Said Saidaxrarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safoyeva Sadoqat Musoyevna
yuridik fanlar nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “21” sentabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1287-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 5-sentabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 5-sentabrdagi 51-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda Big Data texnologiyalari rivojlanishi bilan ma'lumotlarning hajmi va xilma-xilligi misli ko'rilmagan darajada oshib bormoqda. Tadqiqotlariga ko'ra, 2023-yilga kelib Big Data va tahliliy yechimlar bozori 274 milliard dollarga yetgan¹. O'z navbatida, Big Data, uning elementlari va Big Data tahlili natijasida yaratilgan yangi bilim va ma'lumotlarning intellektual mulk obyektlari sifatida muhofaza qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Big Data loyihalarida turli manbalardan olingan ma'lumotlar birlashtiriladi va qayta ishlanadi, bu esa intellektual mulk huquqlarini aniqlash va himoya qilishda muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Big Data kontekstida intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi yangi yanada samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni olib borishni hozirgi tezkor axborot davri talab etmoqda.

Bashoratlarga ko'ra, 2025-yilga kelib global ma'lumotlar hajmi 175 zettabaytga yetishi kutilmoqda². Ushbu ma'lumotlarning sezilarli qismi, turli baholashlarga ko'ra, 20 foizdan 30 foizgachasini shaxsiy ma'lumotlar tashkil etadi³. O'zbekistonda ham raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan Big Data maqsadlarida to'planayotgan ma'lumotlar, ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar hajmi keskin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil oxirida vazirlik va idoralarning 318 ta axborot tizimi va 84 ta ma'lumotlar bazasida 17 million 822 ming fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari mavjud bo'lgan⁴. Bu kabi shaxsiy ma'lumotlarning katta hajmda to'planishi va tahlil qilinishi natijasida fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va himoyasi xavf ostida qolmoqda. Shu bois, mamlakatimizda subyektlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini, qonuniy himoyasini ta'minlashga oid masalar dolzarb hisoblanib, tegishli tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida har soniyada 2,5 million gigabayt ma'lumotlar yaratiladi va bu ko'rsatkich har yili 40% ga oshmoqda⁵. Ma'lumotlarning eksponentsial o'sishi ularni tahlil qilish va ishlov berishning yangi usullarini talab qiladi. Big Data texnologiyalari bu boradagi muhim yechimlardan biri bo'lib, ular terabaytlab va hatto petabaytlab ma'lumotlarni real vaqt rejimida analiz qilish imkonini beradi. O'zbekistonda ham Big Data texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-

¹ <https://www.oxfordcorp.com/en/the-big-small-of-big-data-and-why-it-matters/>

² Statista, "Volume of data/information created, captured, copied, and consumed worldwide from 2010 to 2025", 2021. <https://www.statista.com/statistics/871513/worldwide-data-created/>

³ TechJury, "How Much Data Is Created Every Day in 2022?", 2022. <https://techjury.net/blog/how-much-data-is-created-every-day/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, "Davlat organlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari soni", 2021. <https://mitc.uz/uz/pages/232-davlat-organlarining-axborot-tizimlari-va-malumotlar-bazalarida-fuqarolarning-shaxsiy-malumotlari-soni>

⁵ Domo, "Data Never Sleeps 8.0", 2020. <https://www.domo.com/learn/infographic/data-never-sleeps-8>

son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi¹da, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishida², shuningdek, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son³ hamda 2021-yil 26-avgustdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5234-son⁴ qarorlarida Big Data infratuzilmasini rivojlantirish, uning huquqiy tartibga solinishi ta‘minlash, ma‘lumotlarni zamonaviy usullar bilan ishlov berish markazlarini tashkil etish kabi vazifalar belgilanganki, bu ham mavzu dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2019-yil 2-iyulda “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib⁵, mazkur qonunga ko‘ra, shaxsga doir ma‘lumotlar to‘plash, ishlov berish, uzatish hamda ulardan foydalanishni tartibga soluvchi normalar belgilangan. Lekin, Big Data texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda qonundagi normalar yetarli emas. Big Data elementlarining huquqiy maqomi, ularni himoya qilish mexanizmlari, ma‘lumotlardan foydalanish masalalari ham zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda O‘zbekistonda Big Dataning rivojlanishi, ulardan foydalanish jarayonida shaxsiy ma‘lumotlar himoyasini ta‘minlash hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlarni hisobga olish zarur. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma‘lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) bugungi kunda xalqaro miqyosda etalon sifatida e‘tirof etiladi⁶.

Xorijiy mamlakatlarda ham Big Data bilan bog‘liq qonunchilik va himoya mexanizmlari faol rivojlantirilmoqda. AQShda Federal savdo komissiyasi tomonidan “Adolat Big Data: algoritmlar, diskriminatsiya va maxfiylik” yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan⁷. Xitoy Xalq Respublikasida ham 2021-yil 1-noyabrdan “Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun kuchga

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, ""Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020. <https://lex.uz/docs/5031048>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 05.04.2019 yildagi F-5464-son <https://lex.uz/uz/docs/-4272621>

³ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/-5297046>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5234-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/-5603319>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, "Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019. <https://lex.uz/docs/4396428>

⁶ Yevropa Ittifoqi, "General Data Protection Regulation (GDPR)", 2018. <https://gdpr-info.eu/>

⁷ Federal Trade Commission, "Big Data: A Tool for Inclusion or Exclusion?", 2016. <https://www.ftc.gov/system/files/documents/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues/160106big-data-rpt.pdf>

kirdi¹. Yaponiya va Singapurda ma'lumotlar muhofazasi borasida mukammal qonunchilik bazasi va amaliyot mavjud².

Yuqoridagi raqamlar va misollardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda Big Data tahlillarini qo'llash va ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq munosabatlarni zamonaviy talab darajasida tartibga solish bilan bog'liq dolzarb masalalarni o'rganishni taqozo etadi. O'zbekistonning axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyot sohasida global trendlar va standartlarga mosligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya tadqiqoti "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, Big Data va uning huquqiy tartibga solinishi masalalari so'nggi yillarda xorijlik va mahalliy olimlar tadqiqotlarida keng o'rin egallagan. Jumladan, M.Mandel va S.Barth ilmiy asarlarida Big Dataning iqtisodiyot va biznes sohasidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi³. J.Ginsburg, J.Drexl, M.Leistner, Julie E.Cohen, William M. Martin singari olimlar Big Dataga oid mulkiy huquqlar va intellektual mulk masalalarini tadqiq etishgan⁴ ⁵. V.Mayer-Shonberger, K.Kukyer, N.Purtova va P. M.Schwartzlarning asarlarida esa Big Data doirasida shaxsiy ma'lumotlar himoyasining muammolari va istiqbollari, L.Vasilevskaya⁶ va I.Z.Ayusheeva⁷lar asarlarida Big Dataning fuqarolik huquqiy tabiati yoritiladi⁸.

O'zbekistonda milliy huquq tizimida intellektual mulkning umumiy jihatlari H.Rahmonqulov, O.Oqyulov, S. Gulyamov, I.Rustambekov, N.Imomov, I.Nasriyev, va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mahalliy olimlardan S.Gulyamov, I.Rustambekov, Q.Mehmonov, X.Paluaniyazov, N.Raimova, N.Xatamova, S.Safoyeva, Z.Akramxodjaeva,

¹ People's Congress of the People's Republic of China, Personal Information Protection Law, 2021

<https://personalinformationprotectionlaw.com/>

²Yaponiya hukumati, "Japan's Data Strategy", 2021. https://www.digital.go.jp/assets/contents/node/basic_page/field_ref_resources/0f321c23-517f-439e-9076-5804f0a24b59/20210901_en_05.pdf

³ M.Mandel, "Beyond Goods and Services: The Need for Innovation in Data and Services", 2013. https://www.progressivepolicy.org/wp-content/uploads/2012/10/10.2012-Mandel_Beyond-Goods-and-Services_The-Unmeasured-Rise-of-the-Data-Driven-Economy.pdf

⁴ J.Drexl, "Designing Competitive Markets for Industrial Data - Between Propertisation and Access", 2017. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2862975

⁵ Leistner, Matthias and Antoine, Lucie, IPR and the Use of Open Data and Data Sharing Initiatives by Public and Private Actors (May 3, 2022). Study commissioned by the European Parliament's Policy Department for Citizens' Rights and Constitutional Affairs at the request of the Committee on Legal Affairs 2022, available at: [https://www.europarl.europa.eu/thinktank/en/document/IPOL_STU\(2022\)732266](https://www.europarl.europa.eu/thinktank/en/document/IPOL_STU(2022)732266), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4125503> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4125503>

⁶ Василевская Л. Ю., Подузова Е. Б., Тасалов Ф. А. Цифровизация гражданского оборота: Big Data в механизме гражданско-правового регулирования (цивилистическое исследование) : монография : в 5 т. Т. 5 / отв. ред. Л. Ю. Василевская. М. : Проспект, 2023. С. 13-14.

⁷ Аюшеева И. З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125-134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

⁸ V.Mayer-Shönberger, K.Cukier, "Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think", 2014. <https://academic.oup.com/aje/article/179/9/1143/2739247>

S.Bozarov, B.Musayev¹ va boshqalarning tadqiqotlarida Big Data, ma'lumotlar bazasi, sun'iy intellekt va ma'lumotlar muhofazasining ayrim jihatlari o'rganilgan. Ammo, yuqorida zikr etilgan va mavzuga daxldor bo'lgan manbalarning aksariyati tor doirada biror-bir jihat bo'yicha muammoni tahlil qilgan, xolos. Olib borilayotgan tadqiqotda esa muammo kompleks ravishda, ya'ni, huquqiy va amaliy jihatdan o'rganilishi ko'zda tutilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Big Data (ma'lumotlar)ning fuqarolik-huquqiy tabiati va Big Data doirasida ma'lumotlarni himoya qilishni huquqiy ta'minlash masalalari" nomli mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tabiatini aniqlash hamda ularni huquqiy tartibga solishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish, subyektlarning ma'lumotlari himoyasi va maxfiylikni huquqiy ta'minlash bo'yicha tegishli taklif-tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Big Data tushunchasi, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini huquqiy rejimini fuqarolik-huquqiy jihatdan tahlil qilish, ularning fuqarolik huquqi obyektlari tizimidagi o'rnini aniqlash.

Big Data elementlarining mulkiy maqomini belgilash, Big Dataga nisbatan mulkiy huquqlar mazmuni hamda doirasini ochib berish, ularni identifikatsiya qilish va fuqarolik muomalasiga kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Big Data tarkibidagi maxfiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish asoslarini aniqlash;

Shaxsiy ma'lumotlar va Big Data o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganish, ularni himoya qilishning fuqarolik-huquqiy va boshqa aspektlarini yoritib berish.

Big Dataga nisbatan intellektual mulk institutlarini qo'llash istiqbollari belgilash, Big Data mahsulotlarini intellektual mulk obyekti sifatida tan olish va himoya qilishning samarali modellarini taklif qilish.

Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlashning asosiy tamoyillari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

Big Data kontekstida ma'lumotlar subyektlari huquqlarini kafolatlashda GDPR, OECD, APEC singari xalqaro andoza va yo'riqnomalarni tahlil qilish hamda ulardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish.

Ma'lumotlar subyektlarining ma'lumotlar portativligi, maxfiylik, ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik hamda boshqa huquqlarining mazmunini yoritib berish, bu huquqlarning amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Xorijiy mamlakatlarda Big Data sohasidagi huquqiy tartibga solish amaliyotini qiyosiy tahlil qilish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish.

O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

¹ Mazkur olimlar asarlarining ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning obyekti Big Data texnologiyalari asosidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimi, shu jumladan, ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish jarayonlari bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Big Data va uning elementlarining huquqiy tabiati, mulkiy holatini belgilash, ularni fuqarolik muomalasiga kiritish, himoya qilishni tartibga solishga oid ilmiy-amaliy muammolar, xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti hamda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot doirasida ilmiy bilishning keng tarqalgan umumiy va xususiy usullari kompleks ravishda qo'llangan. Jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, abstraktlashtirish, tizimli yondashuv kabi umumiy usullardan foydalanilgan. Shuningdek, maxsus qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, statistik tahlil, empirik kuzatuv-ijtimoiy so'rov singari maxsus usullar ham qo'llangan. Aytish joizki, mazkur tadqiqotda an'anaviy yuridik metodlar bilan birga zamonaviy innovatsion yondashuvlar ham kompleks ravishda foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi ilmiy natijalar bilan belgilanadi:

subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma'lumotlarga faqat mazkur subyektning roziligi sharti asosida amalga oshirilishi asoslab berilgan;

mulkdor va (yoki) operator qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda subyektning o'z shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun subyektning roziligi olinganligi dalilini taqdim etishi talabi asoslantirilgan;

hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni subyektning roziligi bilan erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan yoki maxfiylikka rioya etishga doir talablar tatbiq etilmaydigan ma'lumotlar toifasi va tushunchasi asoslab berilgan;

shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar tushunchalarining yuridik ta'rifini qonunchilikda aks ettirish haqidagi takliflari asoslab berilgan;

ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilishning talablari ishlab chiqilib, asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Big Data doirasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishning mukammal konsepsiyasi va modeli taklif qilingan;

Big Datani fuqarolik muomalasiga kiritish va uni raqamli iqtisodiyot rivojiga yo'naltirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

Shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan maqbul xavfsizlik darajasini ta'minlovchi huquqiy choralar majmui taqdim etilgan;

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlar, xususan, Yevropa Ittifoqi va OECD talablari bilan uyg'unlashtirish yuzasidan amaliy takliflar kiritilgan;

Ma'lumotlarning fuqarolik-huquqiy muomalasini va Big Data subyektlarining huquqiy maqomini tartibga soluvchi normalarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Big Data va uning elementlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilishning samarali mexanizmlarini (mualliflik huquqi, sui generis huquq, tijorat sirlari) joriy etish asoslangan;

Big Data doirasida maxfiy ma'lumotlar muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy choralar taklif qilingan;

Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar himoyasining zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini milliy qonunchilikda aks ettirish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

Big Dataning huquqiy maqomi, unga bo'lgan mulkiy huquqlarni tartibga solish va axloqiy tamoyillarni ta'minlash uchun keng qamrovli huquqiy asos (framework) bo'lgan universal Big Data kodeksi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy olimlar tomonidan tavsiya etilgan usullar qo'llanilgani, xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti tahlil qilingani, natijalar umumlashtirilgani, hujjatlashtirilgani, takliflar amaliyotga joriy etilgani va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani hamda natijalar yetakchi nashrlarda e'lon qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan qonun ijodkorligi jarayonida, xususan, Big Data va shaxsiy ma'lumotlar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, olingan xulosalar raqamli iqtisodiyot rivojiga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda, Big Data texnologiyalarini joriy qilishda va ma'lumotlar muhofazasini ta'minlashda amaliy qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, "Xalqaro xususiy huquq", "Fuqarolik huquqi", "Kiber huquq" "Xalqaro tijorat huquqi", "Intellektual mulk huquqi" fanlarini o'qitish va ushbu fanlar bo'yicha yoziladigan darslik hamda o'quv qo'llanmalarni yaratish, ma'ruza matnlari, o'quv kurslarining dasturlarini tuzish, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari asosida:

subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma'lumotlarga faqat mazkur subyektning **roziligi mavjud bo'lgan taqdirda**, bundan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog'liq hollar mustasno, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishlov berilishi mumkinligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni **26-moddaning uchinchi qismini** ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 18-apreldagi dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi subyektning maxsus maxfiy ma'lumotlariga nisbatan himoya choralarini kuchaytirib, unga qo'shimcha kafolatlar berishga xizmat qilgan;

Mulkdor va (yoki) operator qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda subyektning o'z shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun **roziligi olinganligi dalilini taqdim etishiga** oid taklif O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni **31-moddaning ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi** ishlab chiqilishida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2024-yil 18-apreldagi dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi operator (mulkdor) shaxsga oid

ma'lumotlar bilan ruxsatsiz foydalanmasligini ta'minlashga, shaxsga oid ma'lumotlarga o'zboshimchalik bilan ishlov berishga yo'l qo'ymaslikka va shaxsga oid ma'lumotlar ishonchli huquqiy himoya qilinishi ta'minlashga zamin bo'lib xizmat qilgan;

subyektning roziligi bilan erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan yoki maxfiylikka rioya etishga doir talablar tatbiq etilmaydigan ma'lumotlar **hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar** hisoblanishiga oid tushunchaga berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risidagi nizomning **5-bandi o'ninchi xatboshisini** ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-iyundagi ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan yagona yondashuvni ta'minlanishiga xizmat qilgan;

shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar deganda, ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz, shu jumladan tasodifiy kirish natijasida shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish, yo'q qilish, nusxalash, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar va omillar yig'indisi tushunilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risidagi nizomning **7-bandi birinchi xatboshisini** ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-iyundagi ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar tushunchasiga, qanday xatti-harakatlar ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdid deb topilishiga aniqlik kiritgan;

ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilishning 4-darajasini ta'minlash uchun quyidagi **talablar** bajarilishi kerak: ma'lumotlar bazalari joylashgan binolarning xavfsizlik rejimini tashkil etish, ushbu binolarga kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarning nazoratsiz kirishi yoki ushbu binolarda qolishining oldini olish; shaxsga doir ma'lumotlar mavjud bo'lgan moddiy jismlar xavfsizligini ta'minlash; ma'lumotlar bazalarida ishlov berilayotgan shaxsga doir ma'lumotlarga kirish, ularning xizmat (mehnat) vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan shaxslar ro'yxatini belgilaydigan hujjatni mulkdor va (yoki) operator rahbari tomonidan tasdiqlash; shaxsga doir ma'lumotlarni mavjud tahdidlardan himoya qilish, zarurat bo'lganda axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholash tartibidan o'tgan axborot xavfsizligi vositalaridan foydalanish to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni

tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risidagi nizomning **14-bandini** ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-iyundagi ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi shaxsga doir ma'lumotlar himoya qilinishi ta'minlaydigan talablar joriy etilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallar va to'plamlarda 11 ta (shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda) ilmiy maqola va tezislarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Big data (Ma'lumotlar) tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiati**" deb nomlangan birinchi bobida Big Data (katta hajmli ma'lumotlar) tushunchasining kelib chiqishi, mohiyati va asosiy xususiyatlari, nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Big Data atamasi ilk bor qo'llanilgan vaqt va makonni aniqlash, bu borada turli xil qarashlarni o'rganish va taqqoslash orqali Big Data fenomenining shakllanish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqotda Jon Mash, Dag Leyni kabi mutaxassislarining Big Data to'g'risidagi qarashlari va ta'riflari tanqidiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Shuningdek, Gantz, Reynsel, Zikopulos, Boyd, Krauford, Mayer-Schönberger va Cukier, A.K. Zharov kabi olimlarning Big Data tushunchasi va uning xususiyatlariga doir ilmiy xulosalari tahlil qilinib, mualliflik ta'rifi berilgan. Tadqiqotchiga ko'ra, *"Big Data - bu raqamli texnologiyalar yordamida turli manbalardan yig'ilgan, an'anaviy usullar bilan ishlov berish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatidan ortiq bo'lgan, yuqori tezlikda o'sib borayotgan va xilma-xil tuzilmaga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami"*dir.

Big data tushunchasining asosiy belgilari va xususiyatlari sifatida hajm (volume), tezlik (velocity), xilma-xillik (variety), ishonchlilik (veracity) va qiymat (value) kabi mezonlar ajratib ko'rsatilgan. Xususan, hajm (volume) Big Dataning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u petabayt va eksabayt kabi o'lchovdagi

ma'lumotlarni qamrab olishi, tezlik (velocity) Big Dataning tez sur'atlar bilan to'planishi, qayta ishlanishi va tahlil qilinishini anglatishi, xilma-xillik (variety) Big Dataning turli xil manbalardan olingan, turli formatdagi va turli turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishini ifodalashi, ishonchlilik (veracity) Big Dataning to'g'riligi, ishonchliligi va sifatini ko'rsatuvchi xususiyatligi, qiymat (value) esa uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini aks ettirishi bayon etilgan.

Dissertant Big Dataning an'anaviy ma'lumotlar va ma'lumotlar bazalaridan farqli jihatlarini qiyosiy tadqiq etgan.

Muallif Big Datani faqat texnologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi multifunksional fenomen sifatida tavsiflagan.

Big Dataning huquqiy tabiati masalasi atroflicha ko'rib chiqilgan. Big Dataning moddiy va nomoddiy ne'matlar bilan o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilingan. Jumladan, tadqiqotchi Big Dataning ashyoviy shaklga ega emasligi, raqamli ko'rinishda mavjudligi, ko'p marotaba foydalanish imkoniyati va nusxa ko'chirish osonligi kabi jihatlari uni moddiy ne'matlardan farqlashini, ayni paytda, Big Dataning ayrim hollarda moddiy ne'matlarga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, masalan, qiymatga ega bo'lishi, oldi-sotdi va ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkinligini ochib berilgan.

Shu bilan birga, Big Dataning g'oyalar, bilimlar va axborotlarning natijasi sifatida yaratilishi, qiymat kasb etishi uni nomoddiy ne'matlarga yaqinlashtirishi asoslab berilgan. Big Data ko'proq intellektual faoliyat natijalariga xos bo'lgan xususiyatlarga, jumladan, nomoddiy ko'rinishga egaligi, ko'p marotaba foydalanish imkoniyati va nusxa ko'chirish osonligi alohida qayd etilgan.

Big Dataning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uni yangi turdagi huquqiy munosabat obyekti sifatida tan olish zarurati ilgari surilgan. Big Datani fuqarolik huquqining alohida obyekti sifatida e'tirof etish, unga nisbatan maxsus huquqiy rejim yaratish lozimligini ta'kidlangan. Xususan, Big Dataning yaratilishi, saqlanishi, tarqatilishi va ishlov berilishiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni joriy etish, uning huquqiy maqomini aniqlashtirish zarurati asoslab berilgan.

Muallif tomonidan Big Data fenomenining murakkabligi va o'ziga xosligini inobatga olib, unga nisbatan huquqiy rejimni belgilashda o'ndan ortiq konsepsiya va nazariyalar qiyosiy tahlil etilib, *kompleks model* yondashuvi ilgari suriladi. Bunda, kompleks model yondashuvi qatlamli huquqlar tizimi (*Layered Rights Approach*), ma'lumotlar ishonchli boshqaruvi (*Data Trusteeship Concept*), litsenziyalash doirasi (*Licensing Systems*), nazorat qilinadigan ma'lumotlar oqimlari (*Data Sovereignty*), kuchaytirilgan maxfiylik kafolatlari (*Information Privacy Theory*), ochiq ma'lumotlar tashabbuslari (*Public Resource Theory*) va sui generis himoyasi (*Sui Generis Database Rights*) singari konsepsiya va nazariyalar o'z ichiga olishi qayd etilgan. Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarni kompleks tartibga solishga imkon beruvchi ushbu kompleks model ma'lumotlarning ta'sirchanligiga qarab himoya darajasini belgilash, maxfiylikni ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish, milliy va xalqaro manfaatlar muvozanatini saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ochiq ma'lumotlar

almashinuvini qo'llab-quvvatlash va qimmatli ma'lumotlar bazalarini yaratishga investitsiyalarni himoya qilishga yo'naltirilganligi asoslab berilgan.

Tadqiqotda Big data doirasida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi, mohiyati va ahamiyati masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida shaxsiy ma'lumotlar hajmi va qamrovi sezilarli darajada kengayib borayotgani, Big data tizimlarida to'planayotgan ma'lumotlarning sezilarli qismini aynan shaxsiy ma'lumotlar tashkil etishi statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tilgan. Big data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasining transformatsiyasi, uning an'anaviy chegaralaridan chiqib, yangi ma'no va xususiyatlarga ega bo'lishi tadqiq etilgan.

Shaxsiy ma'lumotlar tushunchasining Yevropa Ittifoqi, Rossiya va boshqa xorijiy davlatlar va O'zbekiston qonunchiligidagi ta'riflari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston qonunchiligidagi ta'rif esa umumiy xarakterga ega ekanligi qayd etilib, shaxsiy ma'lumotlar tushunchasini yanada aniqlashtirish va kengaytirish zarurati asoslab berilgan. Shaxsiy ma'lumotlar tushunchasining keng qamrovlik mualliflik ta'rifi berilib, qonunchilikka tegishli o'zgartirish kiritish taklifi berilgan. Xususan, *“shaxsga doir ma'lumotlar - shaxsning biometrik ma'lumotlari, sog'lig'i va fiziologik holati haqidagi ma'lumotlar, genetik ma'lumotlari, geolokatsiya ma'lumotlari, shaxsning onlayn faoliyati va raqamli izi bilan bog'liq ma'lumotlar, hamda shaxsni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi har qanday ma'lumot”* ekanligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotda shaxsiy ma'lumotlarni tasniflash, turlarini ajratish masalalari ko'rib chiqilib, shaxsiy ma'lumotlarning identifikatsiya ma'lumotlari, demografik ma'lumotlar, xulq-atvor ma'lumotlari, psixografik ma'lumotlar va ijtimoiy ma'lumotlar kabi turlari ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar, jumladan biometrik, genetik va sog'liqqa oid ma'lumotlar alohida himoyaga muhtoj ekanligi ta'kidlangan.

Big data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning yangi turlari, jumladan biometrik, genetik va geolokatsiya ma'lumotlari paydo bo'layotgani, IoT texnologiyalari shaxslarning kundalik hayoti va faoliyati haqidagi o'ta shaxsiy va ta'sirchan ma'lumotlarni to'plash imkonini yaratayotgani keltirilib, bunday ma'lumotlarni himoya qilish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar zaruriyati asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan dissertatsiyaning **“Big data doirasida mulk huquqi, intellektual mulk huquqi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Big Data va uning elementlarining mulkiy-huquqiy maqomi, ularga nisbatan mulk va intellektual mulk huquqlarining qo'llanilishi masalalari tadqiq etilgan. Bunda Big Dataning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, unga nisbatan an'anaviy mulkiy yondashuvlarni qo'llash muammolari ochib berilgan.

Dissertant Big Dataning mulk huquqi obyektida e'tirof etilishi bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlarni ko'rib chiqib, Big Dataning ashyoviy shaklga ega emasligi, raqamli ko'rinishda mavjudligi, ko'p marotaba foydalanish imkoniyati va nusxa ko'chirish osonligi kabi jihatlari uni moddiy ne'matlardan farqlashini ta'kidlaydi. Ayni paytda, Big Dataning ayrim hollarda moddiy

ne'matlarga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, masalan, qiymatga ega bo'lishi, oldi-sotdi va ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, Big Dataning g'oyalar, bilimlar va axborotlarning natijasi sifatida yaratilishi, qiymat kasb etishi uni nomoddiy ne'matlarga yaqinlashtirishi asoslab berilgan.

Xorijiy mamlakatlardagi ma'lumotlarga nisbatan mulk huquqi masalalariga oid innovatsion yondashuvlar, xususan *fidutsiar mulk (fiduciary ownership)*, "kvazi-mulk", "kuchli" va "kuchsiz" mulk huquqi modellari, "ma'lumotlar boshqaruvchisi" kabi konsepsiya va modellar qiyosiy tahlil etilib, ma'lumotlar boshqa moddiy yoki nomoddiy "ashyo" kabi emasligi va ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli "mulk huquqi" tushunchasi ma'lumotlarga nisbatan yuridik ma'noda ishlatilishida ma'lum qiyinchiliklarni o'z ichiga olishi asoslantirilgan.

Xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni tahlil qilish asosida, Big Dataning o'ziga nisbatan mulk huquqi emas, balki unga nisbatan nazorat va foydalanish huquqlari qo'llanilishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, milliy qonunchilikda Big Data elementlari - axborot, shaxsga doir ma'lumotlar bazasi, axborot resurslarini mulk huquqi obyektlari sifatida e'tirof etuvchi qoidalar mavjudligi qayd etilgan va ular tanqidiy tahlil qilingan. Xususan, FK va bir qator qonunlardagi nomuvofiqliklar, jumladan ma'lumotlar bazasiga nisbatan bir vaqtning o'zida mulk va mualliflik huquqi qoidalarining qo'llanilishi kabi qarama-qarshiliklar ko'rsatib o'tilgan. Muallif milliy qonunchilikdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun Yevropa Ittifoqi Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) tavsiyalari va rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, Big Data elementlariga nisbatan "mulkdor" tushunchasini "nazoratchi" tushunchasi bilan almashtirish, Fuqarolik kodeksiga Big Datani intellektual mulk obyekti sifatida kirituvchi o'zgartishlar kiritishni taklif etgan. Bunda Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunga Big Datani intellektual mulk obyekti sifatida kirituvchi o'zgartishlar kiritish, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi qonundan "mulkdor" atamasini chiqarib tashlash hamda uni "nazoratchi" tushunchasi bilan almashtirish, bu o'zgartishlar Big Data elementlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni himoya qilishda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qilishi ilgari surilgan.

Tadqiqot davomida Big Data va uning elementlarining intellektual mulk obyekti sifatidagi maqomi ham atroflicha ko'rib chiqilgan. Xususan, Big Data va uning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi, ma'lumotlar bazasi sui generis huquqi va savdo sirlari bilan himoyalaniishi mumkinligi tahlil qilingan. Bunda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va sud amaliyotidagi Big Data elementlarini intellektual mulk sifatida himoyalashga oid normalar va precedentslar o'rganilgan. Misol uchun, AQShning "Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co.", Yevropa Ittifoqi Sudining "Football Dataco Ltd and Others v Yahoo! UK Ltd and Others" ishlari ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi bilan himoyalash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

Shu bilan birga, Big Data elementi sifatida ma'lumotlar bazalarini himoya

qilishga oid xalqaro va milliy qonunchilik normalariga baho berilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlar bazalari to'g'risidagi Direktivasi (96/9/EC), O'zbekistonning Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni normalarining tahlili asosida ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi obyekt sifatida himoyalash uchun ularning originalligi, shuningdek ma'lumotlarni tanlash va joylashtirish bo'yicha jiddiy mehnat sarflanganligi mezonlari muhimligi qayd etilgan.

Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda ham Big Data elementlarini sui generis huquq bilan himoya qilish mexanizmlarini joriy etish, xususan, Fuqarolik kodeksiga sui generis huquqi institutiga bag'ishlangan **60¹-bob. Sui generis huquqi**, deb nomlangan yangi bob bilan to'ldirish taklif etilgan. Bu borada Yevropa Ittifoqi Ma'lumotlar bazalari to'g'risidagi Direktivasi (96/9/EC) normalaridan namuna sifatida foydalanish mumkinligi asoslab berilgan. Bunda ma'lumotlar bazasini yaratishda sezilarli investitsiya (substantial investment) kiritilganligi sui generis huquqni vujudga keltirishi, ushbu huquq esa yaratuvchiga ma'lumotlar bazasidan foydalanishda mutlaq huquqni berishi ko'rsatib o'tilgan. Sui generis huquq Big Data elementlarini samarali himoyalash uchun maqbul vosita bo'lib xizmat qilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, dissertatsiyada Big Data va uning elementlarini savdo sirlari sifatida himoya qilish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan. AQSh va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi hamda sud amaliyotidagi Big Data va savdo sirlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar tahlil qilingan. Jumladan, AQSh sudlarining "Wellogix v. Accenture", "Michelin v. Tire Kingdom" singari ishlaridagi Big Data elementlarini savdo sirlari sifatida himoyalashni tasdiqlagan qarorlari tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning "**Big data doirasida ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlash bo'yicha asosiy qoidalar**" deb nomlangan uchinchi bobida Big Data tahlilida ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlash masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Bunda Big Data tahlilida adolatlilik, oqilonalik (oqilona kutish) va shaffoflik tamoyillarining o'rni alohida yoritilgan. Tadqiqotda Big Data tashkilotlari shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda ushbu tamoyillarga amal qilishlari zarurligi asoslab berilgan.

Adolatlilik tamoyili ma'lumotlarga ishlov berishning subyektlar uchun adolatli, muvofiq va kamsitmaydigan tarzda amalga oshirilishini taqozo etishi, bunda ma'lumotlarning hajmi, xilma-xilligi va tahlil algoritmlarining murakkabligi ma'lumotlar subyektlarini "profillashtirish" va "diskriminatsiyaga uchratish" xavflari borligi alohida zikr etirilgan. Big Data tahlili kamsituvchi bo'lmasligi kerakligi, u shaxslar haqida adolatsiz va asossiz qarorlar qabul qilishga olib kelmasligi bayon etilib, tashkilotlar shaxsiy ma'lumotlarni ishlov berishning salbiy oqibatlarini, jumladan diskriminatsiya xavfini minimallashtirishi sharti ta'kidlangan.

Shu bilan birga, dissertatsiyada "oqilona kutish" (reasonable expectations) tamoyilining mazmun-mohiyati ham tahlil qilinib, ma'lumot subyektlari o'z ma'lumotlarini taqdim etar ekan, uning qanday maqsadlarda va qay tarzda qayta

ishlanishi haqida obyektiv tasavvurga ega bo'lishi va bunga nisbatan "oqilona kutishga" haqli ekanligi ta'kidlangan. Izlanuvchi tomonidan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida AQSh, Yaponiya, Kanada, Singapur kabi davlatlar qonunchiligida "oqilona kutish" standarti nazarda tutilgani ko'rsatilib, O'zbekiston qonunchiligida ham ushbu tamoyilni kiritish takliflari asoslab berilgan.

Big Data loyihalarida ma'lumotlarga ishlov berishning "qora quti" sifatida qolishiga yo'l qo'yimaslik, jarayonlar shaffofligini ta'minlash zarurligi ochib berilgan.

Ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida shaffoflikni ta'minlash, jumladan ma'lumotlar subyektlarini ma'lumotlarning qanday ishlatilayotgani haqida xabardor qilish Big Data tashkilotlari zimmasidagi muhim majburiyat ekanligi, shaffoflik ma'lumotlarning to'planishi, ishlatilishi va oshkor qilinishi kabi barcha bosqichlarni qamrab olishi kerakligi, bu esa subyektlarga o'z ma'lumotlari ustidan nazoratni amalga oshirish imkonini berishi asoslab berilgan.

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari, jumladan rozilik, qonuniy manfaatlar hamda sharnomaviy munosabatlarning o'ziga xosligi tahlil qilingan. Big Data tahlilida rozilik olishning qiyinchiliklari, shu bilan birga uning muhimligi ta'kidlanib, rozilik olishning yangi, moslashuvchan modellarini joriy etish zarurati ko'rsatib berilgan. Xususan, bosqichma-bosqich rozilik olish, real vaqt rejimida ma'lumot berish, avtomatlashtirilgan rozilik tizimlari joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Qonuniy manfaatlar asosida ma'lumotlarga ishlov berish Big Data kontekstida muqobil asos bo'lishi mumkinligi, bunda tashkilotlar manfaatlarini subyektlarning huquqlari bilan muvozanatlashtirish lozimligi, biroq bu shart ma'lumotlar subyekti uchun yuqori xavf tug'dirmasligi va uning huquqlarini cheklamasligi kerakligi ochib berilgan.

Raqamli platformalarda shaxsiy ma'lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash, platforma va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlar shartnoma orqali tartibga solinishi, bunda shartnomalar turli huquqiy tabiatga ega bo'lishi mumkinligi, ushbu shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil etilgan.

Tadqiqotda Big Data doirasida ma'lumotlar huquqiy himoyasini ta'minlashda maqsadli cheklash, minimallashtirish, aniqlik, kirish huquqi va hisobdorlik kabi muhim qoidalarning roli ochib berilgan.

Maqsadli cheklash tamoyili Big Data tahlili uchun mutlaq to'siq emas, balki ishlov berish maqsadlarining mosligini baholashni taqozo etishi, ya'ni, ma'lumotlardan foydalanishda dastlabki maqsadga mos kelishi kerakligi, aks holda, yangi maqsad uchun subyektlardan qo'shimcha rozilik olish talab etilishi ta'kidlangan.

Big Data tahlilida ortiqcha ma'lumotlarni to'plash, samarali boshqara olmaslik xavflari borligi qayd etilgan. Ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyili tashkilotlar faqat ishlov berish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi ma'lumotlarni to'plashi va saqlashi kerakligi, bu subyektlar uchun xavflarni kamaytirishi va tashkilotlarning mas'uliyatini pasaytirishi asoslab berilgan.

Muallif ma'lumotlar sifati va aniqligi ham ishlov berish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligi, Big Data loyihalarida qabul qilingan qarorlar aniq va ishonchli

ma'lumotlarga asoslanishi kerakligi, tashkilotlar ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ishlov berish jarayonlarida ularning to'g'riligi, dolzarbligi va ishonchligini ta'minlashi lozimligini ta'kidlagan.

Ma'lumotlar subyektlarining o'z ma'lumotlariga kirish huquqi ham Big Data kontekstida muhim o'rin tutishi, subyektlar o'zlari haqida qanday ma'lumotlar to'plangani, ulardan qanday maqsadlarda foydalanilayotgani to'g'risida xabardor bo'lishi va ushbu ma'lumotlarning nusxasini olishga haqli ekanligi, Big Data tashkilotlari ushbu huquqni ta'minlash uchun samarali mexanizmlarni joriy etishlari zarurligi asoslab berilgan.

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida subyektlarning huquqlarini kafolatlashga urg'u berilib, "unutilish huquqi"ni ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish zarurati ochib berilgan, milliy qonunchilikka bu bo'yicha tegishli o'zgartirishlar kiritish taklif etilgan. Ma'lumotlar subyektlariga o'z ma'lumotlariga nisbatan nazorat imkoniyatlarini kengaytirish, ma'lumotlarni o'zgartirish va o'chirib tashlash huquqini berish muhimligi haqida xulosaga kelingan.

XULOSA

“Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimi” mavzusidagi tadqiqotda quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Big Dataning ashyoviy shaklga ega emasligi uni moddiy ne'matlardan farqlasa, qiymatga egaligi va intellektual faoliyat mahsuli ekanligi nomoddiy ne'matlarga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, Big Data o'zining qator noyob xususiyatlari, jumladan, katta hajmi, tezkor sur'atlar bilan yaratilishi va yangilanib turishi, turli formatlardagi va shakllanmagan ma'lumotlarni qamrab olishi bilan moddiy va nomoddiy ne'matlardan farqlanadi. Bu esa, Big Dataning huquqiy tabiati va rejimini belgilashda alohida yondashish lozimligini ko'rsatadi.

2. Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash yuzasidan bir nechta yetakchi konsepsiya va nazariyalarni ko'rib chiqilib, Big Data fenomenining murakkabligi va o'ziga xosligini inobatga olib, kompleks model yondashuvi ilgari surildi. Bu yondashuv qatlamli huquqlar tizimi (*Layered Rights Approach*), ma'lumotlar ishonchli boshqaruvi (*Data Trusteeship Concept*), litsenziyalash doirasi (*Licensing Systems*), nazorat qilinadigan ma'lumotlar oqimlari (*Data Sovereignty*), kuchaytirilgan maxfiylik kafolatlari (*Information Privacy Theory*), ochiq ma'lumotlar tashabbuslari (*Public Resource Theory*) va sui generis himoyani (*Sui Generis Database Rights*) o'z ichiga oladi. Ushbu elementlar ma'lumotlarning ta'sirchanligiga qarab himoya darajasini belgilash, maxfiylikni ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish, milliy va xalqaro manfaatlar muvozanatini saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ochiq ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash va qimmatli ma'lumotlar bazalarini yaratishga investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan. Bu yondashuv Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarni kompleks tartibga solishga imkon beradi.

3. Big Dataning huquqiy maqomini, rejimini aniq belgilaydigan, Big Datani fuqarolik huquqi obyekt sifatida tan oladigan va unga nisbatan mulk huquqi yoki mulkiy huquq masalalarini tartibga soladigan maxsus qonun hujjatlari hali biror-bir davlat tajribasida uchramasligi, faqatgina bu bo'yicha tashkiliy harakatlar olib borilayotganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, buning asosiy sababi Big Dataning yangi tushuncha ekanligi, o'ziga xos murakkab tuzilishi, uni moddiy va nomoddiy mulk obyektlari qatoriga kiritish qiyinligi bilan asoslandi. Biroq, bugungi kunga kelib Big Data va uning elementlarining huquqiy maqomini aniq belgilab beruvchi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish juda zarurligi tadqiqot davomida yanada ochib berildi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, Big Data bilan faoliyat olib boruvchi tashkilotlarga **"soft law"**, ya'ni tavsiyaviy, namunaviy xarakterdagi huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan **Universal Big Data kodeksi konsepsiyasi** tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqildi.

4. Big Dataga nisbatan milliy qonunchiligimizdagi to'plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumotlar bazalari) va materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko'ra ijodiy mehnat natijasi bo'lgan boshqa jamlama asarlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanishi haqidagi normaga tayangan holda **mualliflik huquqi qo'llanilishi** lozimligini, shu bilan birga Big Dataning murakkab tuzilishi va **ko'p mehnat va investitsiya talab etishini** inobatga olgan holda Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi bilan birgalikda **sui generis** huquqini ham nazarda tutish lozimligi, Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi va sui generis huquqini tatbiq etish orqali uning to'laqonli himoyasini ta'minlanishi asoslantirildi.

5. Tadqiqot davomida shu aniqlandiki, Big Data nafaqat an'anaviy shaxsiy ma'lumotlarni, balki shaxsning **xulq-atvori, qadriyatlarini, ijtimoiy aloqalari, onlayn faoliyati, xarid odatlari** kabi ko'plab jihatlarni ham qamrab oluvchi yangi turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlashga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab etadi. Milliy qonunchilikka shaxsiy ma'lumotlarning yangi turlarini kiritish, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar (*ijtimoiy, geolokatsiya, onlayn faoliyati* va boshqalar) doirasini kengaytirish hamda Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti va OECD yo'riqnomalari kabi ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ushbu yangi toifadagi shaxsiy ma'lumotlar uchun yuqori himoya standartlarini belgilash lozimligi asoslab berilib, tegishli takliflar berildi.

6. Big Data sohasidagi munosabatlarni tartibga solish nafaqat normativ qoidalar, balki **inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish, shaffoflik va hisobdorlik, ma'lumotlar sifati va xavfsizligi, kamsitishga yo'l qo'ymaslik** kabi prinsip va umuminsoniy qadriyatlar Big Dataga oid munosabatlarning asosini tashkil etishi lozimligi haqidagi xulosaga kelindi. Tadqiqot davomida, milliy qonunchilikda axloqiy me'yorlarni huquqiy normalarga integratsiya qilish asoslantirildi.

7. Natijalarni umumlashtirib aytganda, Big Dataning huquqiy maqomini belgilash, ma'lumotlar xavfsizligi va sifatini nazorat qilish, sohaga investitsiyalarni jalb etish, kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda maqsadli dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. O'zbekiston sharoitida ham "Raqqamli iqtisodiyot" milliy dasturi

doirasida Big Data sohasini rivojlantirish, institutsional asoslarini mustahkamlash va infratuzilmasini yaratishga oid choralar kompleksini belgilash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

II. Qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi IV bo'limini, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunni Big Datani intellektual mulk obyekti sifatida ifodalovchi o'zgartishlar bilan to'ldirish taklif etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi **1031-moddasi 1-bandi to'rtinchi xatboshisini** quyidagi tahrirda bayon etish:

"Big Data, elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning **3-moddasi birinchi qismi o'n beshinchisi xatboshisi** hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi" qonunning **4-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisini** quyidagi jumla bilan to'ldirish:

"Big Data - bu raqamli texnologiyalar yordamida turli manbalardan yig'ilgan, an'anaviy usullar bilan ishlov berish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatidan ortiq bo'lgan, yuqori tezlikda o'sib borayotgan va xilma-xil tuzilmaga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami".

4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sui generis huquqi institutiga bag'ishlangan **60¹-bob. Sui generis huquqi**, deb nomlangan yangi bob bilan to'ldirish taklif etiladi. Xususan, ushu bob doirasida ma'lumotlar bazasi yaratishda sezilarli darajadagi sarmoya kiritilgan va uning tarkibi, tizimlashtirish va taqdim etish shakli o'ziga xoslik kasb etgan hollarda ma'lumotlar bazasiga sui generis huquqi vujudga kelishi, sui generis huquqi ma'lumotlar bazasidan butunlay yoki uning sezilarli qismidan nusxa ko'chirish yoki qayta ishlatishdan himoya qilishi kabi normalar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

5. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasidagi *"shaxsga doir ma'lumotlar"* tushunchasini yanada aniqlashtirish va kengaytirish maqsadida **4-moddasi ikkinchi xatboshini** quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

"shaxsga doir ma'lumotlar - shaxsning biometrik ma'lumotlari, sog'lig'i va fiziologik holati haqidagi ma'lumotlar, genetik ma'lumotlari, geolokatsiya ma'lumotlari, shaxsning onlayn faoliyati va raqamli izi bilan bog'liq ma'lumotlar, hamda shaxsni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi har qanday ma'lumot".

6. Adolatlilik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining **5-moddasiga quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi xatboshilari** bilan to'ldirish lozim:

"adolatlilik va kamsitishga yo'l qo'ymasligi;" "qonuniylik, shaffoflik va oqilonalik (oqilona kutish) tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi".

7. Ma'lumotlarni maqsadli cheklash va minimallashtirish tamoyillarini mustahkamlash uchun "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun 10-moddasi quyidagi mazmundagi **to'rtinchi qism** bilan to'ldirish:

"Ma'lumotlarga ishlov beruvchi (operator)shaxsga doir ma'lumotlarni faqat oldindan belgilangan, aniq va qonuniy maqsadlarda hamda ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan minimal hajmda to'plashi va ishlov berishi shart".

8. Big Data tahlilida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun maxsus kafolatlar va mexanizmlarni nazarda tutuvchi quyidagi mazmundagi **"Big data tahlilida ma'lumotlarga ishlov berish usullari"** to'g'risidagi **16¹-modda** bilan to'ldirish:

"Big Data texnologiyalarini qo'llagan holda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish ushbu qonun talablariga qat'iy rioya etilgan holda, qo'shimcha kafolatlar asosida, shu jumladan ma'lumotlarni anonimlashtirish, psevdonimlashtirish, kriptografik himoyalash va boshqa zamonaviy usullar qo'llangan holda amalga oshirilishi mumkin".

9. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlarini aniqlashtirish va kengaytirish maqsadida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 18-moddasiga quyidagi tahrirdagi **4-qism bilan** to'ldirish:

"Davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga qonun bilan yuklatilgan funksiya va vakolatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hollarda shaxsga doir ma'lumotlarga ularning roziligisiz ishlov berilishi mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beruvchi subyekt(operator)ning yoki uchinchi shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hollarda roziliksiz ishlov berilishi mumkin, bundan shaxsga doir ma'lumotlar subyektining asosiy huquq va erkinliklari ustun bo'lgan hollar mustasno".

10. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 30-moddasi 1-bandi quyidagi mazmundagi **sakkizinchi xatboshi** bilan to'ldirish lozim:

"Shaxsga doir ma'lumotlar subyektini o'z ma'lumotlarini to'g'rilash, to'ldirish, bloklash va yo'q qilishni, shuningdek ma'lumotlar o'chirilganligi yoki ular almashtirilganligi to'g'risida xabardor etilishni so'rash huquqiga ega".

11. Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va profillashtirish jarayonlarida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash maqsadida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 25-moddasini quyidagi mazmundagi **5-qism bilan** to'ldirish:

"Faqat avtomatlashtirilgan ishlov berish asosida, shu jumladan profillash natijalariga ko'ra shaxsga doir qarorlar qabul qilish taqiqlanadi. Ushbu qoida quyidagi hollarga nisbatan qo'llanilmaydi: qaror ma'lumotlar subyektini bilan tuzilgan shartnoma ijrosi uchun zarur bo'lsa yoki ma'lumotlar subyektini aniq va ochiq rozilik bildirgan bo'lsa; qaror qonun hujjatlari bilan ruxsat etilgan bo'lsa va ma'lumotlar subyektining huquq va erkinliklarini himoya qilishning tegishli choralari nazarda tutilgan bo'lsa".

12. Subyektning maxsus maxfiy ma'lumotlariga nisbatan himoya choralari kuchaytirib, unga qo'shimcha kafolatlar berishga xizmat qilgan quyidagi mazmundagi taklif "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni **26-moddaning uchinchi qismini** ishlab chiqishda foydalanilgan:

*“Subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma’lumotlarga faqat mazkur **subyektning roziligi mavjud bo’lgan taqdirda, bundan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ro’yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog‘liq hollar mustasno, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishlov berilishi mumkin**”.*

13. Shaxsga oid ma’lumotlarga o‘zboshimchalik bilan ishlov berishga yo‘l qo‘ymaslikka va shaxsga oid ma’lumotlar ishonchli huquqiy himoya qilinishi ta’minlashga zamin bo‘lib xizmat qilgan quyidagi mazmundagi taklif **“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni 31-moddaning ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi** ishlab chiqilishida foydalanilgan:

“Mulkdor va (yoki) operator qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda subyektning o‘z shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berish uchun roziligi olinganligi dalilini taqdim etishi lozim

14. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun va “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonundagi “mulkdor” atamasini chiqarib tashlash hamda uni “nazoratchi” tushunchasi bilan almashtirish zarur. Bu Big Data elementlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni himoya qilishda yagona yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu qonunlarda “ma’lumotlar nazoratchisi” tushunchasiga ta’rif berish va uning huquqiy maqomini belgilash lozim. Masalan, quyidagi normani kiritish mumkin: *“Ma’lumotlar nazoratchisi - ma’lumotlarga ishlov berish maqsadlari va vositalarini belgilaydigan, shuningdek ma’lumotlarning qonuniyligi, sifati va xavfsizligi uchun mas’ul bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs”.*

Bunda “nazoratchi”ning huquq va majburiyatlari, javobgarligi masalalari ham aniq belgilab berilishi kerak.

15. Tadqiqotchi tomonidan berilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi “Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilishida inobatga olingan. Xususan,

-5-bandi o‘ninchi xatboshisi ishlab chiqilishida:

“Hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar - subyektning roziligi bilan erkin foydalanilishi mumkin bo‘lgan yoki maxfiylikka rioya etishga doir talablar tatbiq etilmaydigan ma’lumotlar”. (Ushbu normani, shuningdek, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun “4-modda. Asosiy tushunchalar” qismiga kiritish maqsadga muvofiq)

-7-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda:

“Shaxsga doir ma’lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar - ma’lumotlar bazasiga ruxsatsiz, shu jumladan tasodifiy kirish natijasida shaxsga doir ma’lumotlarni o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish, yo‘q qilish, nusxalash, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi”.

-14-bandini ishlab chiqishda:

“Ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilishning 4-darajasini ta’minlash uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

ma’lumotlar bazalari joylashgan binolarning xavfsizlik rejimini tashkil etish, ushbu binolarga kirish huquqiga ega bo’lmagan shaxslarning nazoratsiz kirishi yoki ushbu binolarda qolishining oldini olish;

shaxsga doir ma’lumotlar mavjud bo’lgan moddiy jismlar xavfsizligini ta’minlash; ma’lumotlar bazalarida ishlov berilayotgan shaxsga doir ma’lumotlarga kirish, ularning xizmat (mehnat) vazifalarini bajarishi uchun zarur bo’lgan shaxslar ro’yxatini belgilaydigan hujjatni mulkdor va (yoki) operator rahbari tomonidan tasdiqlash;

shaxsga doir ma’lumotlarni mavjud tahdidlardan himoya qilish, zarurat bo’lganda axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholash tartibidan o’tgan axborot xavfsizligi vositalaridan foydalanish.

III. Amaliy taklif va tavsiyalar:

1. Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida Big Data texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunda quyidagi jihatlar hisobga olinishi zarur:

turli sohalarda Big Data texnologiyalarini faol qo‘llash, ma’lumotlar almashinuvi va tahlilini yaxshilash;

Big Data bilan ishlovchi kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalarida tegishli yo‘nalishlarni ochish;

ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha yuqori standartlarni belgilash va ularning ijrosini ta’minlash;

innovatsion g‘oyalarni Big Data asosida amalga oshirish, venchur investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish;

ma’lumotlar sifati va ishonchliligini oshirish, ma’lumotlarni anonimlashtirish va zaxiralash tizimlarini va boshqa usul va vositalarni joriy etish.

2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Big Data texnologiyalarini qo‘llashda shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik tamoyillariga amal qilishlari zarur. Tadqiqot ko‘rsatadiki, xususan:

ma’lumotlarni to‘plash va ishlatishning maqsadlari va shartlari oshkor etilishi;

ma’lumotlar subyektlarining huquqlarini ta’minlash, ularning roziligini olish mexanizmlari yaratilishi;

ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash, ulardan noqonuniy foydalanishning oldini olish;

ma’lumotlar bilan bog‘liq faoliyat ustidan ichki va tashqi nazoratni o‘rnatish kerak.

3. Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari Big Data texnologiyalarining joriy etilishi, ulardan foydalanish va nazorat qilishda faol ishtirok etishlari lozim. Bunda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

aholining Big Data borasidagi huquqiy savodxonligini oshirish, ijobiy va salbiy jihatlari to'g'risida xabardorlikni yuksaltirish;

ma'lumotlar sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqish va qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ekspertlar va manfaatdor tomonlar muloqotini yo'lga qo'yish;

ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va faoliyat ustidan nodavlat nazoratni amalga oshirish, shaffoflikni ta'minlash.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilg'or tajribalarni o'rganish Big Data sohasi rivojida muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot yakunlari bo'yicha shu maqsadda:

ma'lumotlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'yish;

ma'lumotlar xavfsizligi va sifatiga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;

davlatlar va kompaniyalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish, xalqaro ilmiy va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

5. Big Data texnologiyalaridan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy muammolarni o'rganish, ularning oqibatlarini yumshatish choralarini ishlab chiqish zarur. Tadqiqot davomida aniqlangan ba'zi muammolar, xususan, madaniyat va diniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, diskriminatsiyaning oldini olish kabi masalalar doimo e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun Big Data loyihalarining ijtimoiy ekspertizasini o'tkazish, ularning ijtimoiy oqibatlari monitoringini yo'lga qo'yish, etika qo'mitalarini tuzish kabi choralarni ko'rish lozim.

Bundan tashqari, tadqiqot xulosalariga ko'ra, Big Data sohasining institutsional asoslarini mustahkamlash uchun bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vakolatli organlar tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Yuqoridagi taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini Big Data fenomeni bilan bog'liq yangi huquqiy munosabatlarni to'liq qamrab olishga va samarali tartibga solishga xizmat qiladi. Ularning qabul qilinishi Big Data ishtirokchilarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, ular o'rtasidagi manfaatlar balansini va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda sohada halol raqobat muhitini yaratishga yordam beradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC
DEGREES DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 AT TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

MAMANAZAROV SARDOR SHUKHRATOVICH

CIVIL LEGAL REGIME OF BIG DATA

12.00.03 - Civil law. Business law.
Family law. International private law

**doctoral (PhD) dissertation abstract
on legal sciences**

Tashkent – 2024

The theme of the doctoral dissertation (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.3.PhD/Yu684.

The doctoral dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsul.uz) and informational and educational portal “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:

Rashidov Komil Kayumovich
Doctor of Science in Law, Professor

Official opponents:

Gulyamov Said Saidakhrarovich
Doctor of Science in Law, Professor

Safoyeva Sadokat Musoyevna
Candidate of Science in Law

The leading organization:

**The Institute of Parliamentary Studies
under the Legislative Chamber of the
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on 21 September, 2024 at 10:00 a.m. on the session of the Scientific Council DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 at Tashkent State Law University. (Address: 100047, Sayilgokh street, 35 Tashkent city. Phone: (99871) 233-66-36; fax: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation is available at the Information-Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No. 1287), (Address 100047, Tashkent city, A.Timur street, 13. Phone: (99871) 233-66-36).

Abstract of the dissertation was submitted on September 5, 2024.

(Registry protocol No.51 on September 5, 2024)

I.R. Rustambekov

Chairman of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Law, Professor

D.Yu. Khabibullayev

Secretary of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Law, Professor

B.K.Khodjayev

Chairman of the Scientific Seminar under
the Scientific Council for awarding
scientific degrees, Doctor of Science in
Law, Professor

INTRODUCTION (annotation of the doctoral (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation theme. With the development of Big Data technologies in the world, the volume and variety of data is increasing at an unprecedented level. According to their research, by 2023 the market of Big Data and analytical solutions reached 274 billion dollars¹. In turn, the protection of Big Data, its elements, and new knowledge and information created as a result of Big Data analysis as intellectual property objects is becoming an urgent issue. In Big Data projects, data from different sources are combined and processed, which creates problems in identifying and protecting intellectual property rights. Therefore, in order to overcome these problems, the current rapid information age requires conducting research aimed at developing new and more effective legal mechanisms regulating intellectual property rights in the context of Big Data.

According to forecasts, by 2025, the volume of global data is expected to reach 175 zettabytes². A significant part of this data, according to various estimates, from 20 to 30 percent is personal data³. With the rapid development of digital technologies in Uzbekistan, the volume of data collected for Big Data purposes, especially personal data, is increasing sharply. According to the Ministry of Information Technologies and Communications Development of the Republic of Uzbekistan, at the end of 2020, personal data of 17 million 822 thousand citizens were available in 318 information systems and 84 databases of ministries and agencies⁴. As a result of the large-scale collection and analysis of such personal data, the privacy of citizens, the confidentiality and protection of personal data are at risk. Therefore, in our country, issues related to ensuring the confidentiality and legal protection of personal data of subjects are considered urgent and require appropriate research.

According to statistics, 2.5 million gigabytes of data are created every second worldwide, and this figure is increasing by 40% every year⁵. The exponential growth of data requires new methods of analysis and processing. Big Data technologies are one of the important solutions in this regard, they allow real-time analysis of terabytes and even petabytes of data. In Uzbekistan, the introduction and development of Big Data technologies is defined as an important direction of state policy. In particular, in the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy⁶ approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-6079 of October 5, 2020, the President of the Republic of Uzbekistan "Measures to improve the

¹ <https://www.oxfordcorp.com/en/the-big-small-of-big-data-and-why-it-matters/>

² Statista, "Volume of data/information created, captured, copied, and consumed worldwide from 2010 to 2025", 2021. <https://www.statista.com/statistics/871513/worldwide-data-created/>

³ TechJury, "How Much Data Is Created Every Day in 2022?", 2022. <https://techjury.net/blog/how-much-data-is-created-every-day/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, "Davlat organlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari soni", 2021. <https://mitc.uz/uz/pages/232-davlat-organlarining-axborot-tizimlari-va-malumotlar-bazalarida-fuqarolarning-shaxsiy-malumotlari-soni>

⁵ Domo, "Data Never Sleeps 8.0", 2020. <https://www.domo.com/learn/infographic/data-never-sleeps-8>

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, ""Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020. <https://lex.uz/docs/5031048>

civil legislation of the Republic of Uzbekistan"¹ as well as PD-4996 dated February 17, 2021 "On measures to create conditions for rapid introduction of artificial intelligence technologies"² and dated February 26, 2021 In the decisions of August PD-5234 "On measures to introduce a special regime for the use of artificial intelligence technologies"³, the development of Big Data infrastructure, ensuring its legal regulation, and data processing with modern methods tasks such as the organization of processing centers are defined, which also indicates the relevance of the topic.

In Uzbekistan, the issue of personal data protection is gaining urgent importance. On July 2, 2019, the Law "On Personal Data"⁴ was adopted, according to this law, which regulates the collection, processing, transfer, and use of personal data. norms are set. However, in a situation where Big Data technologies are rapidly developing, legal norms are not enough. The legal status of Big Data elements, their protection mechanisms, and issues of data use also require modern approaches.

From this point of view, the development of Big Data in Uzbekistan today, ensuring the protection of personal data in the process of its use, and improving its legal basis are of great importance. It is necessary to take into account international standards and best practices. For example, the General Data Protection Regulation (GDPR) of the European Union is today recognized as a standard at the international level⁵.

Legislation and protection mechanisms related to Big Data are also being actively developed in foreign countries. In the USA, the Federal Trade Commission has developed the guideline "Fair Big Data: Algorithms, Discrimination and Privacy"⁶. It is also 2021 in the People's Republic of China the Law "On Personal Data Protection" came into force on November 1⁷. Japan and Singapore have an excellent legal framework and practice in terms of data protection⁸.

The above figures and examples show that the study of topical issues related to the application of Big Data analysis and the regulation of relations related to

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 05.04.2019 yildagi F-5464-son <https://lex.uz/uz/docs/-4272621>

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/-5297046>

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/-5603319>

⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019. <https://lex.uz/docs/4396428>

⁵ Yevropa Ittifoqi, "General Data Protection Regulation (GDPR)", 2018. <https://gdpr-info.eu/>

⁶ Federal Trade Commission, "Big Data: A Tool for Inclusion or Exclusion?", 2016. <https://www.ftc.gov/system/files/documents/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues/160106big-data-rpt.pdf>

⁷ People's Congress of the People's Republic of China, Personal Information Protection Law, 2021 <https://personalinformationprotectionlaw.com/>

⁸ Yaponiya hukumati, "Japan's Data Strategy", 2021. https://www.digital.go.jp/assets/contents/node/basic_page/field_ref_resources/0f321c23-517f-439e-9076-5804f0a24b59/20210901_en_05.pdf

data protection in our country requires a level that meets modern requirements. Ensuring Uzbekistan's compliance with global trends and standards in the field of informatization and digital economy is an important factor in our socio-economic development.

Correspondence of the research to the main priority areas of development of science and technology of the republic. Dissertation research was carried out in accordance with the priority direction "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of the information society and the democratic state".

The degree to which the problem has been studied. It is known that the issues of Big Data and its legal regulation have occupied a large place in the research of foreign and domestic scientists in recent years. In particular, in the scientific works of M. Mandel and S. Barth, the importance of Big Data in the field of economy and business is considered¹. Scholars such as J. Ginsburg, J. Drexl, M. Leistner, Julie E. Cohen, and William M. Martin have researched property rights and intellectual property issues related to Big Data^{2 3}. In the works of V. Mayer-Shonberger, K. Kukyer, N. Purtova, and P. M. Schwartz, the problems and prospects of personal data protection in the framework of Big Data, and in the works of L. Vasilevskaya⁴ and I. Z. Ayusheeva⁵, the civil legal nature of Big Data is highlighted⁶.

General aspects of intellectual property in the national legal system of Uzbekistan were studied by H. Rahmonkulov, O. Okyulov, S. Gulyamov, I. Rustambekov, N. Imomov, I. Nasriyev, and other scientists.

In the research of local scientists S. Gulyamov, I. Rustambekov, K. Mekhmonov, Kh. Paluaniyazov, N. Raimova, N. Khatamova, S. Safoyeva, Z. Akramkhodjaeva, S. Bozarov, B. Musayev and others⁷, Big Data, information database, some aspects of artificial intelligence, and data protection are studied. However, most of the sources mentioned above and related to the topic only analyzed the problem in a narrow framework. In the ongoing research, it is planned to study the problem comprehensively, that is, from the legal and practical point of view.

¹ M.Mandel, "Beyond Goods and Services: The Need for Innovation in Data and Services", 2013. https://www.progressivepolicy.org/wp-content/uploads/2012/10/10.2012-Mandel_Beyond-Goods-and-Services_The-Unmeasured-Rise-of-the-Data-Driven-Economy.pdf

² J.Drexl, "Designing Competitive Markets for Industrial Data - Between Propertisation and Access", 2017. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2862975

³ Leistner, Matthias and Antoine, Lucie, IPR and the Use of Open Data and Data Sharing Initiatives by Public and Private Actors (May 3, 2022). Study commissioned by the European Parliament's Policy Department for Citizens' Rights and Constitutional Affairs at the request of the Committee on Legal Affairs 2022, available at: [https://www.europarl.europa.eu/thinktank/en/document/IPOL_STU\(2022\)732266](https://www.europarl.europa.eu/thinktank/en/document/IPOL_STU(2022)732266), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4125503> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4125503>

⁴ Василевская Л. Ю., Подузова Е. Б., Тасалов Ф. А. Цифровизация гражданского оборота: Big Data в механизме гражданско-правового регулирования (цивилистическое исследование): монография: в 5 т. Т. 5 / отв. ред. Л. Ю. Василевская. М.: Проспект, 2023. С. 13–14.

⁵ Аюшеева И. З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

⁶ V. Mayer-Shönberger, K. Cukier, "Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think", 2014. <https://academic.oup.com/aje/article/179/9/1143/2739247>

⁷ Mazkur olimlar asarlarining ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

The relatedness of the research to the research plans of the scientific organization or educational institution where the dissertation was completed. The research work was carried out within the framework of the scientific research work plan of Tashkent State University of Law entitled "Civil-legal nature of Big Data (data) and issues of legal provision of data protection within the framework of Big Data" (2021-2024).

The aim of the research is to determine the civil-legal nature of legal relations in the field of Big Data and to develop a scientific concept of their legal regulation to prepare relevant proposals for legal protection and confidentiality of subjects' data.

Research objectives:

Analyzing the legal regime of Big Data concept, essence and specific features from a civil-legal point of view, determining their place in the system of civil law objects.

Determining the property status of Big Data elements, revealing the content and scope of property rights in relation to Big Data, developing mechanisms for their identification and inclusion in civil circulation.

Identifying the basis of legal protection of confidential information contained in Big Data;

To study the relationship between personal data and Big Data, to clarify the civil-legal and other aspects of their protection.

To determine the perspectives of application of intellectual property institutions in relation to Big Data and to offer effective models of recognition and protection of Big Data products as objects of intellectual property.

Development of basic principles and mechanisms of personal data protection and confidentiality in Big Data conditions;

Analysis of international standards and guidelines such as GDPR, OECD, and APEC in guaranteeing the rights of data subjects in the context of Big Data and their use in improving national legislation.

Elucidate the content of data subjects' data portability, privacy, consent to data processing and other rights, develop mechanisms for the implementation of these rights.

Comparative analysis of the practice of legal regulation in the field of Big Data in foreign countries, generalization of best practices.

Development of scientifically based recommendations on improving the legislation of Uzbekistan.

The object of the research is the system of civil-legal relations based on Big Data technologies, including relations related to data processing and protection processes.

The subject of the research is the legal nature of Big Data and its elements, determining the property status, including them in civil circulation, scientific and practical problems related to regulation of protection, international legal documents, legislation and practice of foreign countries, national legislation and law enforcement practice, and existing conceptual approaches, scientific-theoretical views, and legal categories.

Research methods. In the framework of the research, common general and special methods of scientific knowledge were used comprehensively. In particular, general methods such as analysis and synthesis, induction and deduction, abstraction, and systematic approach were used. Special methods such as comparative-legal, formal-legal, statistical analysis, empirical observation-social survey were also used. It should be said that modern innovative approaches were comprehensively used in this study along with traditional legal methods.

The scientific novelty of the research is determined by the following scientific results:

biometric and genetic data used to determine the subject's identity are justified only on the basis of the subject's consent;

the request of the owner and (or) the operator to provide proof of the consent of the subject for the processing of the subject's personal data in the cases stipulated by the law;

the category and concept of information that can be used by everyone, that is, that can be freely used with the consent of the subject or that are not subject to confidentiality requirements, are justified;

proposals to reflect the legal definition of the concepts of threats to the security of personal information in the legislation are substantiated;

the requirements for the protection of personal data in the processing of personal data in databases have been developed and substantiated.

Practical results of the research:

An excellent concept and model of regulation of legal relations within Big Data is proposed;

Mechanisms for introducing Big Data into civil circulation and directing it to the development of the digital economy have been developed;

A set of legal measures providing an acceptable level of security in relation to personal data is provided;

Practical suggestions on harmonizing national legislation with international standards, in particular, the requirements of the European Union and OECD;

Recommendations on improving the norms regulating the civil-legal treatment of data and the legal status of Big Data subjects have been developed;

Implementation of effective mechanisms for protection of Big Data and its elements as intellectual property (copyright, sui generis right, commercial secrets) is based;

Legal and organizational measures aimed at strengthening the protection of confidential information in the framework of Big Data are proposed;

Recommendations are made to reflect modern principles and mechanisms of personal data protection in the context of Big Data in national legislation;

The concept of a universal Big Data Code has been developed, which is a comprehensive legal framework (framework) for the regulation of the legal status of Big Data, the regulation of property rights to it, and ethical principles.

The reliability of the research results. The reliability of the research results is explained by the use of methods recommended by foreign scientists, the analysis of international law and national legislation norms, the experience of developed

countries, law enforcement practice, the generalization and documentation of the results, the implementation of proposals in practice and their approval by authorized bodies, as well as the publication of the results in leading publications.

The scientific and practical significance of the research results.

The results of the research can be used in the law-making process, in particular, in the improvement of legislation in the field of Big Data and personal data. At the same time, the obtained conclusions can be practically applied in the implementation of projects aimed at the development of the digital economy, in the introduction of Big Data technologies and in ensuring data protection.

Also, from the results of the research, improvement of legislation in the field of intellectual property of the Republic of Uzbekistan, teaching of the subjects "International Private Law", "Civil Law", "Cyber Law", "International Commercial Law", "Intellectual Property Law" and in these subjects it can be used to create written textbooks and training manuals, to prepare lecture texts, programs of training courses, scientific-research works, and to increase the legal consciousness and culture of citizens.

The implementation of the research results. Based on the results of the research:

biometric and genetic data used to determine the subject's identity only in the case of the subject's consent, except for cases related to the implementation of international agreements of the Republic of Uzbekistan, the implementation of justice, and enforcement proceedings, as well as the proposal that it can be processed in other cases provided by the legislation was used in the development of the third part of Article 26 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data" (Decision of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dated 18.2024 Act of April). The introduction of this proposal served to strengthen the protection measures against the special confidential information of the subject and to provide it with additional guarantees;

proposal for the owner and (or) operator to provide proof of the subject's consent for the processing of his/her personal data in the cases provided for by the law. Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data" 31 taken into account in the development of the sixth paragraph of the second part of the article (Deed of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dated April 18, 2024). The introduction of this proposal is intended to ensure that the operator (owner) does not use personal data without permission, to prevent arbitrary processing of personal data and to ensure reliable legal protection of personal data;

a proposal for the concept of information that can be freely used with the consent of the subject or that does not apply requirements for confidentiality are considered information that can be used by everyone, according to the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2022 "Personal Clause 5, tenth paragraph of the Regulation on determining the level of protection of personal data in the processing of personal data, approved by Decision No. 570 "On approval of certain regulatory legal documents in the field of data processing taken into account in the development (reference of the Cabinet

of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated June 27, 2024). The introduction of this proposal served to ensure a uniform approach to information that can be used by everyone;

threats to the security of personal data mean changing, filling, using, giving, distributing, transferring, misappropriating, destroying personal data as a result of unauthorized access to the database, including accidental access, copying, as well as the proposal to understand the set of conditions and factors that can lead to other illegal actions, issued by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2022 "Some normative and legal acts in the field of personal data processing 570 "On approval of documents" was taken into account in the development of the first paragraph of clause 7 of the regulation on determining the level of protection of personal data in the processing (2024 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan - reference dated June 27). The introduction of this proposal clarified the concept of threats to the security of personal information, what actions are considered threats to the security of information;

to ensure the 4th level of protection for personal data processing in databases, the following requirements must be met: organization of the security regime of the premises where the databases are located, uncontrolled access of persons who do not have access to these premises, or to prevent them from staying in these buildings; to ensure the safety of material objects containing personal information; approval by the owner and (or) head of the operator of the document defining the list of persons required to access information about the person processed in the databases to perform their service (labor) duties; the proposal to protect personal information from existing threats; and, if necessary, to use information security tools that have passed the procedure for assessing the compliance with the legal requirements in the field of information security, according to the Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2022, it was taken into account in the development of paragraph 14 of "The regulation on determining the level of protection of personal data in the processing of personal data" approved by the decision No. 570 (Reference of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated June 27, 2024). The introduction of this proposal served to introduce requirements that ensure the protection of personal data.

Approbation of the research results. The results of the research were discussed at 5, including 3 international and 2 national scientific-practical conferences.

Publication of the research results. A total of 11 scientific works on the topic of the dissertation, including 11 (including 2 in foreign publications) scientific articles and abstracts were published in scientific journals and collections.

The structure and volume of the dissertation. The dissertation structurally consists of an introduction, three chapters, a conclusion, a list of references, and appendices. The total volume of the research is 156 pages.

THE MAIN CONTENT OF THE DISSERTATION

In the **introduction** of the dissertation includes (annotation of the doctoral dissertation) the relevance and necessity of the research topic, the connection of the research with the main priority directions of the development of science and technology of the republic, the level of research of the researched problem, the connection of the dissertation topic with the scientific and research work of the higher educational institution where the dissertation is being carried out, the goals and objectives of the research, object and subject, methods, scientific novelty and practical result of the research, reliability of the research results, scientific and practical significance of the research results, their introduction, approval of the research results, publication of the results and the size and structure of the dissertation that are explained.

The first chapter of the dissertation entitled "**The concept, essence and legal nature of Big data**" analyzes the origin, essence and main features of the concept of Big Data, as well as its theoretical and legal foundations. By determining the time and place when the term Big Data was first used, by studying and comparing different views on this matter, the stages of formation of the Big Data phenomenon are highlighted. In the study, the views and definitions of Big Data of experts such as John Mashie and Doug Laney were studied from a critical point of view. Also, Gantz, Rainsel, Tzikopoulos, Boyd, Crawford, Mayer-Schönberger, and Cukier, A.K. The scientific conclusions of scientists such as Zharov on the concept of Big Data and its characteristics are analyzed, and the author's definition is given. According to the researcher, "Big Data is a rapidly growing and diverse set of data collected from various sources with the help of digital technologies, which exceeds the capabilities of traditional methods for processing, storing, and analyzing."

The main characteristics and features of the concept of big data are distinguished by the criteria of volume, velocity, variety, veracity, and value. Specifically, volume is one of the most important features of big data, encompassing data measured in petabytes and exabytes. Velocity refers to the rapid accumulation, processing, and analysis of big data. Variety indicates that big data includes information from various sources, in different formats, and of different types. Veracity represents the accuracy, reliability, and quality of big data. Lastly, value reflects the economic and social significance of big data.

The researcher has made a comparative study of the differences between Big Data and traditional data and databases.

The author described Big Data not only as a technological phenomenon, but as a multifunctional phenomenon affecting socio-economic and legal relations.

